

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

АДАПТИВНОЕ БИЗНЕС-ПЛАНИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	10
Шарипов Конгратбай Авезимбетович, Исматуллаев Темур Равшан угли	
STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	18
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА.....	26
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	35
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	41
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	48
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAkatNI BOSHqARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIqISH.....	53
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	62
Alimova Dilafro'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	68
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.....	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	74
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHqARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI.....	89
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	101
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	106
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	



MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	117
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI	123
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI	127
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO‘Y BERISHI MUMKIN BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI	132
Dehqonov Oyatillo Mansurbek o‘g‘li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH...	143
Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg‘ashova Madina, Jo‘rayev Muhiddin	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	147
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
KORXONALARDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH” KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	151
Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO‘LLARI.....	156
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH	161
Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna	
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O‘RNI	166
Irgashev Anvar Farxodovich	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	173
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР	178
Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	184
O‘tbosarov Abrorbek Adxamjon o‘g‘li	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	189
Xamidova Zarifa Urol qizi	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI.....	196
Ro‘zmetov Mansur	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	200
Shaydulova Marjona Alisher qizi	
KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	205
Rizoyev Farrux Hikmatilloevich	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	210
Turaboev Ibroxim Ismoil o‘g‘li	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG‘DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	215
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ	225
Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ.....	231
Тожалиев Шохрух Талип ўғли GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING	236
Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH	241
Azlarova Aziza Axrorovna AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	248
Marufxanov Davron Hasanovich O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI.....	255
Isakjanova Saboxat Muhamedovna MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	263
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI.....	268
Anvar Deberdiyev RAQAMLI XIZMATLARNING O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O'RNI	272
Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	278
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILiyATIGA YANGICHA YONDASHUV.....	283
Tadjiev Bexzod Umidjanovich OTMNI MOLIYAVIY TA'MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELARI.....	290
Tuxliyev Bozor Karimovich TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	293
Abirova Nargizabonu TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	298
Ro'ziyeva Maftuna Yusufovna OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI	303
Sharipova Shahlo Istamovna METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	308
Maxmudov Dostonbek Soyibjon o'g'li SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	312
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna O'ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	317
Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra	



OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOYIY XARAJATLARNI BOSHQARISH.....	323
Primova Nigora Ikrom qizi	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR	331
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASI..	337
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	341
Xakimov Akbar Anvarovich	
FOTOLEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI.....	344
Majidova Maxliyo A'zam qizi	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	354
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV).....	362
Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova	
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES.....	367
Sanemkhan Abdullaeva	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	375
Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li	
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQLASH	379
Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin	
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА.....	386
Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	391
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	397
Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI	403
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	407
Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi	
XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHİYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI	411
Karimova Shaxnoza O'ktamovna	
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	418
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH	423
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
AKTIVLAR QADRSIZLANISHI XARAJATLARINING MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBOTLARIGA TA'SIRI.....	427
Jarimbetov Ajiniyaz Kurbanbaevich	



MUHANDISLIK GEOMETRIYASI VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM NATIJALARIGA TA'SIRI: AUDIO VA VIDEOTEKNOLOGIYALAR IXTISOSLIGI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	430
Utkirova Mamura Faxriddin qizi	
HUDUDIY TADBIRKORLIK TIZIMIDA INVESTITSION RESURSLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL VA EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	436
Isakov Axmadali Esanbayevich	
MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA INVESTITSION RESURSLARNING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	444
Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li	
XABAR ALMASHISHGA ASOSLANGAN MARKETINGDA ISTE'MOLCHILARNING SHAXSIY HAYOTINI KUTILMALARI	452
Raxmatova Sitora Shuxratjon qizi	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI OPTIMALLASHTIRISH VA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SEKTORINI INSTITUTSIONAL ISLOH QILISHNING QIYOSIY TAHLILI.....	461
Sharapov Umidjon Shavkatovich	
ZAMONAVIY SERVIS KOMPANIYALAR TANNARXINI ANIQLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI	471
Berdiyeva Dilfuza Axatovna	
NAVOIY VILOYATINING TURISTIK OBYEKTALARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI	477
Turayev Abduvohid Kuldashevich	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	483
Alimova Dilafro'z Tohir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	488
Suvonov Ibrohim Izbosarovich	
QORAKO'L TERI JINGALAKLARINING TAKRORLANMAS KO'RINISHI VA XUSUSIYATLARI.....	492
Hakimova Sh.Q., Azimov J.Sh., Farmonov F.F.	
YOSH TADBIRKORLARNING STARTAP LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	497
Koriev Orif Azizovich	
HUDUDLARDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	502
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Karimov Chuxmor Abdirashidovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY HOLATI VA MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI.....	507
Alimov Baxodir Batirovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	513
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINING ROLI	516
Xodjimatom Maksudbek Ubaydullayevich	
MINTAQA TURIZM INDUSTRIYASINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA BOSHQARUV FAOLIYATLARI TAHLILI	520
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Ruziqulov Aziz Tuxtayevich	
TIJORAT BANKLARIDA FINTECH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ORQALI MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASH: NAZARIY YONDASHUV VA ISTIQBOLLAR	526
Nazarova Shohista Tolmas qizi	
METALLARGA BOSIM OSTIDA ISHLOV BERISH JARAYONLARINI RAQAMLI MODELLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI	531
Xasanov Kamoliddin Akmal o'g'li, Abdullayev Fatxulla Sagdullayevich, Diyorov Salohiddin Farhod o'g'li, Jalolov Jafar Jamol o'g'li	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL MABLAG'LARI HISOBINI MHHS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: USLUBIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	537
Umurzakov Dilshodbek Xakimovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI YASHIRIN IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHGA UNDOVCHI OMILLAR.....	543
Bobojonov Azimjon Akmal o'g'li	
MINTAQANING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	548
Maxmudov Jasurbek Ergashevich	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI MUZEY OBYEKTINING SIG'IM TAHLILI: FAYZULLA XO'JAYEV UY-MUZEYI TAJRIBASIDA.....	553
Odilova Muattar Akram qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
MAMLAKATIMIZDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING USTUVORLIKLARI.....	560
Turdiyeva Muqaddas Umarovna	
МОДЕЛЬ ЦИФРОВОГО ОБЪЕКТА ДЛЯ АНАЛИЗА КОМПЛЕКСНЫХ ЦИФРОВЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ОБЪЕКТОВ.....	565
Гулямов Шухрат, Шамсутдинова Винера, Караханова Алсу, Зайниддинова Зебинисо	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMLARI	571
Yuldoshov Otabek Jovli o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING XALQARO KAPITAL BOZORLARIGA INTEGRATSIYASI VA INVESTITSION SALOHİYATINI OSHIRISH MEKANIZMLARI.....	576
Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSH SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISH VA RAQOBAT USTUNLIKLARINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI	583
Asenbaeva Aydaygul, Toshqulova Aziza	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	587
Halimov Humoyunbek Tohirjon o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	591
Halimov Humoyunbek Tohirjon o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
SCENARIO-BASED ECONOMETRIC EVALUATION OF REAL INVESTMENT EFFICIENCY IN SMALL BUSINESS ACTIVITIES.....	601
Otajanov Umid Abdullayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	611
Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich	
BANK 4.0 SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BANK BOSHQARUVI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	619
Boltayev Zokirjon Otanazarovich	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SUV RESURSLARI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH USULLARI.....	622
Sapayev Azamat Rustamovich	
ФИСКАЛЬНЫЕ ПРАВИЛА В СРЕДНЕСРОЧНОМ БЮДЖЕТНОМ ПЛАНИРОВАНИИ.....	626
Е.М. Соң	
BUXORO VILOYATINING YALPI HUDUDIY MAHSULOT DINAMIKASI VA UNING TARMOQ TUZILMASIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR TAHLILI	631
Raxmonqulova Nafisa Olimjonovna	
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI.....	636
Raupov Shuxrat Soyibovich	



BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI

Raupov Shuxrat Soyibovich

Buxoro davlat universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Tadqiqotda barqaror turizm sohasida yetakchi hisoblangan Ispaniya, Italiya va Fransiya tajribalari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan institutsional, iqtisodiy va sertifikatlashtirish mexanizmlarining samaradorligi baholandi. Olingan natijalar asosida xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda amaliy mexanizmlari ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: barqaror turizm, ekoyorliq, sertifikatlashtirish, jamoatchilikka asoslangan turizm (CBT), ekologik rivojlanish, turizm strategiyasi, xalqaro tajriba.

Аннотация. В исследовании проведён сравнительный анализ опыта Испании, Италии и Франции, являющихся ведущими странами в сфере устойчивого туризма. Также дана оценка эффективности институциональных, экономических и сертификационных механизмов, применяемых в международной практике. На основе полученных результатов разработаны приоритетные направления и практические механизмы развития устойчивого туризма в Узбекистане посредством адаптации зарубежного опыта к местным условиям.

Ключевые слова: устойчивый туризм, экомаркировка, сертификация, общественно-ориентированный туризм (CBT), экологическое развитие, туристическая стратегия, международный опыт.

Abstract. The study provides a comparative analysis of the experiences of Spain, Italy, and France, which are recognized as leading countries in the field of sustainable tourism. In addition, the effectiveness of institutional, economic, and certification mechanisms applied in international practice was evaluated. Based on the obtained results, priority directions and practical mechanisms for the development of sustainable tourism in Uzbekistan were developed through the adaptation of international experience to local conditions.

Keywords: sustainable tourism, ecolabel, certification, community-based tourism (CBT), ecological development, tourism strategy, international experience.

KIRISH

Yevropa Ittifoqi barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha eng ilg'or mintaqaviy tajribaga ega hududlardan biri hisoblanadi. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa mintaqasi 2025-yilda jami 793 million xalqaro sayyohni qabul qilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich dunyo bo'yicha xalqaro sayyohlar oqimining 52 foizini tashkil etgan hamda pandemiyadan oldingi darajadan yuqori natijani qayd etgan [1]. Yevropa Ittifoqining mazkur sohada yetakchilik qilishi barqaror turizm tashabbuslarini global miqyosda kengaytirish va samarali amaliyotlarni ommalashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli tadqiqot doirasida barqaror turizmni rivojlantirishda yetakchi tajribaga ega bo'lgan Ispaniya, Italiya va Fransiya davlatlari tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yevropa Ittifoqining barqaror turizm tizimi milliy va xalqaro miqyosda muvofiqlashtirilgan siyosiy vositalar asosida amalga oshiriladi. Eurostat ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi aholisi tomonidan 2025-yilda 3,08 milliarddan ortiq sayyohlik safarlari amalga oshirilgan [1]. Shuningdek, 2025-yilda Ispaniyaga rekord darajadagi 96,8 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 3,2 % ga yuqori hisoblanadi [7]. Yevropa Komissiyasining turizm strategiyasida esa barqarorlik, innovatsiya va raqamli transformatsiya sektorni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan.

Ispaniya barqaror turizmning innovatsion mexanizmlarini joriy etishda ilg'or davlatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, 2016-yil iyul oyida joriy etilgan Balear orollarining barqaror turizm solig'i (Impuesto de Turismo Sostenible — ITS) barqaror turizm loyihalarini moliyalashtirishda muhim iqtisodiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. 2025-yilda Balear orollari hukumatining ITS bo'yicha ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgan bo'lib, mazkur soliqdan tushadigan daromad hajmi taxminan 136 million yevroni tashkil etgan [2]. Ushbu soliq Mayorka, Menorka, Ibiza va Formentera hududlaridagi turistik joylarda tunash xizmatlariga nisbatan qo'llaniladi. Soliq



stavkalari turar joy toifasi hamda mavsumiy omillarga qarab, har bir kishi uchun kuniga 0,50 yevrodan 4 yevrogacha belgilangan [3].

Italiyada ham barqaror turizmni rivojlantirishga qaratilgan 2023-2027-yillarga mo'ljallangan strategik reja ishlab chiqilgan bo'lib, unda barqarorlik, innovatsiya va xalqaro hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [4]. Mamlakatning agroturizm sektori qishloq xo'jaligi hamda turizmni o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirishning samarali modelini namoyon etmoqda. Statista ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Italiyada 26 000 ga yaqin agroturizm muassasalari faoliyat yuritgan va ularga tashrif buyurgan sayyohlar soni 5 milliondan oshgan. Shuningdek, Italiya qonunchiligidagi 96/2006-sonli qonun (Legge 20 febbraio 2006, n. 96) agroturizmning asosiy qishloq xo'jaligi faoliyati bilan uzviy bog'liqligini ta'minlovchi muhim huquqiy asos sifatida xizmat qiladi [5].

Fransiya esa barqaror turizmni rivojlantirishda sertifikatlashtirishga asoslangan yondashuvni shakllantirgan davlatlardan biri hisoblanadi. 1998-yilda Teragir uyushmasi tomonidan joriy etilgan "Yashil kalit — Clef Verte" yorlig'i turizm muassasalari uchun yetakchi xalqaro ekoyorliqlardan biriga aylangan.

Fransiyada "Clef Verte" xalqaro ekoyorlig'i bilan sertifikatlangan muassasalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2025-yilgi ro'yxatda 2 428 ta sertifikatlangan muassasa qayd etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yildagi 1 564 ta muassasaga nisbatan 55 % ga yuqori hisoblanadi. Mazkur ijobiy o'sish tendensiyasi 2026-yilda ham davom etishi prognoz qilinmoqda va sertifikatlangan muassasalar soni rekord darajadagi 3 035 taga yetishi kutilmoqda. Mehmonxonalar esa ushbu umumiy ko'rsatkichning taxminan 66 % ini tashkil etishi rejalashtirilgan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda barqaror turizmni rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganishda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tizimli yondashuv hamda kontent tahlili usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Yevropa Ittifoqi, Osiyo-Tinch okeani va MDH mamlakatlarining barqaror turizmga oid strategik hujjatlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda milliy turizm dasturlari tahlil qilindi. Shuningdek, UNWTO, Eurostat, OECD, UNDP va milliy statistika manbalari asosidagi ma'lumotlar solishtirilib, davlatlarning institutsional, iqtisodiy va sertifikatlashtirish mexanizmlari 5 ballik mezon asosida baholandi. Olingan natijalar asosida O'zbekiston uchun moslashtirilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida tahlil qilingan yirik turizm industriyasiga ega davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularning har biri barqaror turizmni rivojlantirishda o'ziga xos ustunliklarga ega. Xususan, Ispaniya siyosiy qo'llab-quvvatlash va fiskal mexanizmlar samaradorligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda joriy etilgan turizm solig'i orqali barqaror turizm loyihalarini moliyalashtirish tizimi shakllantirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 133,3 million yevroga yetgani mazkur mexanizmning iqtisodiy samaradorligini namoyon etadi. Fransiya esa sertifikatlashtirish tizimlari bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Xususan, "Clef Verte" xalqaro ekoyorlig'i asosida 3 035 ta muassasani sertifikatlash rejalashtirilgani mamlakatda ekologik standartlarni joriy etish va turizm infratuzilmasini barqaror rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Italiya tajribasi esa jamoatchilik ishtirokiga asoslangan yondashuvning samaradorligini namoyish etmoqda. Mamlakatdagi 26 000 ta agroturizm fermasi qishloq xo'jaligi va turizm integratsiyasining muvaffaqiyatli modelini shakllantirib, hududiy iqtisodiy rivojlanish hamda mahalliy aholi manfaatlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar barqaror turizmni rivojlantirish faqat bitta vosita yoki mexanizm bilan emas, balki o'zaro uyg'unlashgan ko'p o'lchovli tizimlar orqali samarali amalga oshirilishini ko'rsatadi. Shu asosda tadqiqot davomida siyosiy qo'llab-quvvatlash, fiskal vositalar, sertifikatlashtirish tizimlari, raqamli integratsiya hamda jamiyat bilan aloqalar mezonlari asosida mazkur davlatlar tajribasi 5 ballik tizim orqali qiyosiy baholandi (1-rasm).

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi esa barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha Yevropa tajribasidan farq qiluvchi o'ziga xos yondashuvlarni namoyon etadi. Mazkur hudud turizm oqimining yuqori sur'atlarda o'sishi, rivojlanayotgan institutsional tizimlar hamda jamoatchilikka asoslangan boshqaruv mexanizmlarining keng qo'llanilishi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot doirasida Tailand, Malayziya va Indoneziyaning barqaror turizmni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilindi. Ushbu davlatlar ommaviy turizmning jadal rivojlanishini barqarorlik maqsadlari bilan muvozanatlashtirishga qaratilgan innovatsion modellarni shakllantirgan bo'lib, ular mintaqada samarali va istiqbolli amaliyot sifatida e'tirof etiladi (1-rasm).

1-rasm. Ispaniya, Italiya va Fransiyada barqaror turizm mexanizmlarini qiyosiy baholash.



Tailand jamoatchilikka asoslangan turizm (CBT) hamda institutsional barqarorlik tizimlarini rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Mamlakat 2024-yilda 35,5 million xalqaro sayyohni qabul qilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich pandemiyadan oldingi 2019-yildagi 39,9 millionlik rekord darajaga yaqinlashganini ko'rsatadi [8]. Tailandda barqaror turizm infratuzilmasi 2003-yilda qirollik farmoni asosida tashkil etilgan bo'lib, u mamlakatning to'qqizta maxsus hududida faoliyat yurituvchi Barqaror turizm ma'muriyati uchun belgilangan hududlar tashkiloti (DASTA) tomonidan boshqariladi [9].

2023-yilda Tailand Turizm boshqarmasi (TAT) tomonidan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga moslashtirilgan barqaror turizm konsepsiyasi joriy etildi. Mazkur tizim oqilona boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir, madaniy merosni muhofaza qilish hamda ekologik mas'uliyat kabi to'rtta asosiy yo'nalishni qamrab oladi [10]. Tailandning CBT bozori 2023-yilda 29,6 milliard AQSH dollariga baholangan bo'lib, 2034-yilga kelib uning hajmi 140,3 milliard AQSH dollariga yetishi hamda o'rtacha yillik o'sish sur'ati 15,3 % ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda [11].

Mamlakatda STAR (Sustainable Tourism Acceleration Rating) sertifikatlashtirish tizimi ham izchil rivojlantirilmoqda. Xususan, TAT tomonidan 2026-yilgacha turizm bizneslarining 70 % ini STAR akkreditatsiyasidan o'tkazishga qaratilgan strategik reja ishlab chiqilgan. Shuningdek, 2025-yilda Tailandning 10 ta destinatsiyasi "Yashil destinatsiyalar" xalqaro e'tirofiga sazovor bo'ldi [12]. Ushbu natijalar mamlakatda barqaror turizmni institutsional va amaliy jihatdan samarali rivojlantirish mexanizmlari shakllanganini ko'rsatadi.

Malayziya esa 2016-2025-yillarga mo'ljallangan Milliy ekoturizm rejasi orqali ekoturizmni milliy turizm strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi [13]. Mazkur strategiyaning samaradorligi Malayziyaning 2023-yil iyul oyida Forbes Advisor tomonidan dunyoning eng yaxshi 50 ta ekoturizm yo'nalishlari orasida 26-o'rinni egallagani bilan ham tasdiqlanadi [14]. Mamlakat 2024-yilda qariyb 25 million xalqaro sayyohni qabul qilgan bo'lib, "Visit Malaysia 2026" dasturi doirasida 2026-yilda 35,6 million tashrif buyuruvchi hamda 147,1 milliard RM miqdorida turizm tushumiga erishish maqsadi belgilangan [15].

2023-yil sentabr holatiga ko'ra, Malaysia Investment Development Authority (MIDA) tomonidan umumiy qiymati 2,4 milliard RM bo'lgan 51 ta tabiatga asoslangan turizm loyihasi ma'qullangan bo'lib, ushbu loyihalar natijasida 4 252 ta yangi ish o'rni yaratilishi kutilmoqda [16]. Borneo sohilidagi Sabah shtati esa Malayziyaning yetakchi ekoturizm markazlaridan biriga aylangan. 2024-yilda hudud 3,1 milliondan ortiq sayyohni qabul qilgan va turizmning hududiy YalMga qo'shgan hissasi 13,7 milliard RMga yetgan [17]. Sabahning turizmni rivojlantirish strategiyasi mahalliy jamoatchilik manfaatlarini qo'llab-quvvatlash, resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik va ijtimoiy-madaniy ta'sirlarni minimallashtirish tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Malayziyada ekoturizm (57,8 %) va tabiatga asoslangan sayohatlar (45,7 %) ichki turizmning asosiy motivatsion omillari qatoriga kiradi [18]. Bu esa mamlakat turizm bozorining barqaror rivojlanish maqsadlari bilan yuqori darajada uyg'unlashganini ko'rsatadi.

Indoneziya esa Bali oroli misolida mahalliy qadriyatlarga asoslangan innovatsion sertifikatlashtirish tizimlarini shakllantirgan davlatlardan biri hisoblanadi. Indoneziyaning "Turizm to'g'risida"gi 10/2009-sonli



qonunida barqarorlik tamoyillari tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muhitlarni qamrab olishi zarurligi belgilab qo'yilgan bo'lib, bu barqaror turizmni rivojlantirishning muhim huquqiy asosini yaratadi [19]. Bali 2024-yilda 16,4 million xalqaro sayyohni qabul qilgan va ushbu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 7,9 % ga yuqori bo'lgan [20].

Pickel-Chevalier va boshqa olimlarning ta'kidlashicha, 2000-yilda yaratilgan hamda 2004-yilda UNWTO tomonidan tan olingan "Tri Hita Karana" sertifikati g'arbning barqarorlik standartlarini Balining inson, tabiat va ma'naviy uyg'unlikka asoslangan hindu falsafasi bilan integratsiyalashgan holda ifodalaydi [21]. Mazkur sertifikatlash tizimi Balidagi 3 500 dan ortiq mehmonxonalar tomonidan qabul qilingan. Shuningdek, "Eco Tourism Bali" dasturi GSTC standartlariga mos keluvchi 30 ta mezon asosida resurslarni tejash, ifloslanishni kamaytirish hamda biologik xilma-xillikni muhofaza qilishga qaratilgan mexanizmlarni amalga oshirmoqda [22]. Bali turizm destinatsiyasi xalqaro miqyosda ham yuqori e'tirofqa sazovor bo'lib, TripAdvisor tomonidan 2025-yilning eng yaxshi turistik yo'nalishlaridan biri sifatida baholangan (1-jadval).

1-jadval

Osiyo Tinch okeani barqaror turizm yondashuvlarining qiyosiy tahlili¹

MEZONLAR	TAILAND	MALAYZIYA	INDONEZIYA
Asosiy yondashuv	Institutsional asos + CBT	Milliy ekoturizm rejasi	Mahalliy sertifikatlash + huquq
Asosiy muassasa	DASTA	Tourism Malaysia / MIDA	Kemenparekraf / ITDC
Sertifikatlash tizimi	STAR (maqsad: 2026-yilga kelib 70%)	Forbesning eng yaxshi 50 taligi (#26)	Tri Hita Karana (UNWTO)
2024-25 yillarda kelganlar	35,5M+ (2024)	25M+ (2024)	16,4M+ Bali (2024)
CBT Bozor miqyosi	\$29.6B (2023)	RM2.4B investitsiya	3,500+ sertifikatlangan mehmonxonalar
Strategik yo'nalish	BCG iqtisodiyot modeli	Visit Malaysia 2026	Mahalliy integratsiyasi
Noyob xususiyat	10 ta yashil destinatsiyalar	Sabah ekoturizm modeli	Hindu-G'arb sintezi

Qiyosiy tahlil natijalari (1-jadval) Osiyo–Tinch okeani mintaqasida barqaror turizmni rivojlantirishning uchta asosiy strategik yo'nalishi shakllanganini ko'rsatadi. Tailand DASTA institutsional modeli orqali barqaror turizmni muvofiqlashtirishga alohida e'tibor qaratib, STAR sertifikatlashtirish tizimi vositasida turizm sanoatining keng ishtirokini ta'minlab kelmoqda. Malayziya esa o'zining boy tabiiy biologik xilma-xilligidan samarali foydalanib, Milliy ekoturizm rejasi asosida tabiatga yo'naltirilgan turizm infratuzilmasiga yirik investitsiyalarni jalb etmoqda. Indoneziya tajribasi esa xalqaro standartlarni mahalliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan madaniy integratsiyalashgan sertifikatlashtirish tizimlari orqali innovatsion yondashuvlarni namoyon etadi. Mazkur tajribalar O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi va turizm salohiyatini hisobga olgan holda barqaror turizmni rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mintaqasi ham O'zbekiston uchun barqaror turizmni rivojlantirish borasida dolzarb tajribalarni taqdim etadi. Umumiy tarixiy meros, institutsional tizimlarning o'zaro yaqinligi hamda iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari ushbu mintaqa tajribasini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Tadqiqot doirasida Gruziya va Qozog'istonda barqaror turizmni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinib, ularning amaliy natijalari O'zbekiston uchun istiqbolli model sifatida baholandi.

Gruziya MDH hududida barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda turizm yalpi ichki mahsulotga bevosita 7,2 % hissa qo'shayotgan bo'lsa, multiplikativ ta'sirlarni hisobga olganda ushbu ko'rsatkich 21,4 % ga yetadi [23]. 2024-yilda turizm sohasi 150 000 dan ortiq yangi ish o'rni yaratgan bo'lib, mamlakatdagi deyarli har yettinchi band aholi vakili aynan turizm sohasida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, yangi yaratilgan ish o'rinlarining 27,9 % i turizm sanoatiga to'g'ri kelgan [24]. Gruziya 2024-yilda 7,4 milliondan ortiq xalqaro sayyohni qabul qilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan

1 Muallif tomonidan UNWTO, milliy turizm idoralari va sanoat hisobotlaridan olingan ma'lumotlar (2023-2025).

4,2 % ga yuqori hisoblanadi. Xalqaro sayyohlardan olingan daromad hajmi esa 14,3 milliard AQSH dollariga yetib, turizmning mamlakat to'lov balansidagi strategik ahamiyatini namoyon etgan [25].

Gruziyaning barqaror turizm strategiyasi ommaviy turizmga emas, balki yuqori qiymatga ega sayyohlarni jalb etishga qaratilgan "value vs volume" tamoyiliga asoslanadi. "Vision-2030: Gruziyani rivojlantirish strategiyasi" doirasida Yevropa, Shimoliy Amerika, Yaqin Sharq va Osiyo davlatlaridan tashrif buyuruvchi turistlar uchun sifatli turistik xizmatlarni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mamlakat hududining qariyb 20 % i muhofaza qilinadigan hududlar sifatida ajratilgan bo'lib, ular tarkibiga umumiy maydoni 168 000 gektardan ortiq bo'lgan 15 ta qo'riqxonalar, 12 ta milliy bog', 20 ta boshqariladigan qo'riqlanadigan hudud hamda 40 dan ortiq tabiiy yodgorliklar kiradi [26].

Global A'trof-muhit jamg'armasi va Kavkaz Tabiat jamg'armasi bilan hamkorlikda 2020-yilda 200 kilometrlik ekoturizm yo'llarini rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilgan bo'lsa, 2021-yilda qo'shimcha 1 200 kilometrlik yangi yo'llar barpo etildi [27]. Shuningdek, Muhofaza qilinadigan hududlar agentligi tomonidan xalqaro ekoturizm standartlariga mos keluvchi infratuzilmalar, jumladan, Borjomi-Xaragauli milliy bog'idagi 32 kilometrlik ekologik yo'nalish tashkil etilgan. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatda zamonaviy va barqaror turizm infratuzilmasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Qozog'iston ham ekoturizmni rivojlantirish borasida sezilarli ijobiy natijalarga erishmoqda. So'nggi uch yil davomida mamlakatda ekoturistlar soni 40 % ga oshgan. Turizm va sport vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda ekoturistlar soni 2,8 million kishiga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yildagi 2,4 million turistga nisbatan 18 % ga yuqori hisoblanadi [28]. Shuningdek, 2025-yilning dastlabki 9 oyi davomida Qozog'iston 12,1 million xorijiy sayyohni qabul qilgan bo'lib, bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 730 000 nafarga ko'pdir. Ulardan 8,6 million nafari mamlakat hududida 24 soatdan ortiq muddat davomida bo'lgan [29].

Mamlakatda 14 ta milliy bog' va 10 ta qo'riqxonalar faoliyat yuritmoqda. Ular orasida Ile-Alatau milliy bog'i, Charyn kanyoni, Oltin-Emel hamda Olmaota yaqinidagi Kolsay ko'llari eng mashhur ekoturizm yo'nalishlari sifatida e'tirof etiladi [30]. 2025-yil iyun oyida Qozog'iston BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda BIOFIN tashabbusi doirasida ishlab chiqilgan ST RK 2993 "Turizm xizmatlari. Ekoturizm. Umumiy talablar" milliy standartini qabul qildi. Mazkur standart Global Barqaror Turizm Kengashi (GSTC) tavsiyalari hamda Travelife va EarthCheck kabi xalqaro sertifikatlashtirish tizimlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, energiya tejash, biologik xilma-xillikni muhofaza qilish va chiqindilarni boshqarish talablarini o'z ichiga oladi [31].

Shuningdek, 2021-yildan buyon Qozog'istonda "Yaxshi" va "Juda yaxshi" toifalarini o'z ichiga olgan milliy sifat yorlig'i tizimi joriy etilgan bo'lib, 2025-yilga kelib 220 ta turizm subyekti mazkur sertifikatlash tizimidan muvaffaqiyatli o'tgan. Qozog'istonning "Turizm sanoatini rivojlantirish konsepsiyasi (2023-2029)" doirasida 2029-yilgacha turizm sohasiga yo'naltiriladigan yillik investitsiyalar hajmini 475 million AQSH dollariga yetkazish hamda 800 000 ta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan [32] (2-jadval).

2-jadval

Gruziya va Qozog'iston barqaror turizm yondashuvlarining qiyosiy tahlili²

KO'RSATKICH	GRUZIYA	QOZOG'ISTON
Turizmning YalMga qo'shgan hissasi	7,2%	2,5%
Xalqaro tashrif buyuruvchilar (2025)	5,52 million	12,1 mln (9 oyda)
Ekoturistlar (2025)	1,25 million	2,8 million (+40%)
Turizm daromadi	\$4.69 milliard	\$3,6 milliard (9 oyda)
Muhofaza qilinadigan hududlar	20% hudud, 15 ta qo'riqxonalar	14 ta milliy bog', 10 ta qo'riqxonalar
Turizm sohasidagi ish o'rinlari	152,000 (har 7-ishchi)	Maqsad: 2029-yilga kelib 800,000
Milliy standart	GSTC-D moslashuvi (2025)	ST RK 2993 (2025-yil iyun)
Strategik yondashuv	Qiymat va hajm	Ekoturizmga hikingga e'tibor

MDH mamlakatlari tajribasi O'zbekiston uchun barqaror turizmni rivojlantirish yo'nalishida bir qator muhim amaliy xulosalarni shakllantiradi. Xususan, Gruziya va Qozog'iston tajribasi (2-jadval) milliy standartlar hamda sertifikatlashtirish tizimlarini ishlab chiqishda xalqaro hamkorlikning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Ushbu davlatlar BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hamda Global Barqaror Turizm Kengashi (GSTC) bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali barqaror turizmni rivojlantirishning institutsional va huquqiy asoslarini mustahkamlashga erishgan.

Gruziyaning "qiymat va hajm" (value vs volume) strategiyasi shuni ko'rsatadiki, nisbatan kichik davlatlar turizmida miqdoriy ko'rsatkichlarga emas, balki xizmatlar sifati va yuqori qiymatli turistik mahsulotlarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish orqali xalqaro bozorda samarali raqobatlasha oladi. Mazkur yondashuv mamlakatning turizm daromadlarini oshirish bilan birga, tabiiy va madaniy resurslardan oqilona foydalanish imkonini ham yaratmoqda.

2 WTTTC, GEOSTAT, Qozog'iston Turizm va sport vazirligi.



Qozog'iston tajribasi esa ekoturizm infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning yuqori samaradorligini namoyon etdi. Xususan, so'nggi uch yil davomida ekoturistlar sonining 40 % ga oshgani milliy bog'lar va qo'riqlanadigan hududlarda zamonaviy infratuzilma hamda ekologik standartlarga mos xizmatlarni rivojlantirish muhim natijalar berishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, milliy standartlashtirish tizimini xalqaro talablar asosida shakllantirish turizm xizmatlari sifatini oshirish va xalqaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, MDH mamlakatlari tajribasi qo'riqlanadigan hududlar uchun zamonaviy infratuzilma investitsiyalarini kengaytirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda milliy standartlashtirish tizimlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, GSTC va UNWTO tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro tavsiyalar hamda metodik ko'rsatmalar O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishning samarali institutsional mexanizmlarini shakllantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro tajribalar asosida amalga oshirilgan qiyosiy tahlil "O'zbekiston-2030" milliy rivojlanish strategiyasi doirasida mamlakatda barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha muhim amaliy xulosalarni shakllantiradi. Avvalo, institutsional muvofiqlashtirish mexanizmlarining samaradorligi barqaror turizm rivojida hal qiluvchi omillardan biri ekanligi kuzatildi. Xususan, Tailandning 2003-yilda tashkil etilgan va 9 ta maxsus hududda faoliyat yurituvchi DASTA modeli aniq vakolat va funksiyalarga ega bo'lgan maxsus agentliklar orqali barqaror turizmni samarali boshqarish mumkinligini namoyon etdi. Gruziya tajribasi esa nisbatan kichik davlatlar alohida va tarqoq boshqaruv tizimlari o'rniga markazlashgan institutsional imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali yuqori natijalarga erishishini ko'rsatmoqda. Mazkur tajribalar O'zbekiston uchun Samarqand, Buxoro va Xiva kabi ustuvor tarixiy-madaniy hududlarda maxsus barqaror turizm zonalarini tashkil etish hamda Turizm qo'mitasining muvofiqlashtiruvchi rolini yanada kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Ikkinchidan, xalqaro miqyosda tan olingan milliy standartlar turizm xizmatlarining ishonchligini oshirish va xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qozog'istonning GSTC talablariga moslashtirilgan ST RK 2993 milliy standarti, 2025-yil iyun oyida qabul qilingani bilan, O'zbekiston uchun amaliy model sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, Indoneziyaning "Tri Hita Karana" sertifikatlash tizimi mahalliy madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilgan standartlar xalqaro ishonchni yanada mustahkamlashini ko'rsatdi. Ushbu tajribalardan kelib chiqib, O'zbekistonda GSTC tamoyillariga mos, mahalla institutining an'anaviy boshqaruv mexanizmlarini o'zida mujassamlashtirgan milliy barqaror turizm standartlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uchinchidan, barqarorlikka yo'naltirilgan fiskal mexanizmlar turizm sohasini moliyalashtirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ispaniyaning Balear turizm solig'i modeli orqali 170 dan ortiq barqarorlik loyihalariga yo'naltirilgan yillik 133,3 million yevro mablag' shakllantirilgan turizmga oid maxsus yig'imlarning yuqori iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, MDH mamlakatlari tajribasi bunday mexanizmlarni bosqichma-bosqich joriy etish samaraliroq natija berishini ko'rsatmoqda. Xususan, Gruziyaning yangi fiskal vositalarni joriy etishdan avval institutsional salohiyatni mustahkamlashga qaratilgan yondashuvi O'zbekistonning mavjud rivojlanish bosqichiga nisbatan yanada mos va istiqbolli model sifatida baholanishi mumkin.

To'rtinchidan, jamoatchilik manfaatlarini birgalikda taqsimlashga asoslangan mexanizmlar mahalliy aholi tomonidan turizmni qo'llab-quvvatlash darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tailandning jamoatchilikka asoslangan turizm modeli doirasida shakllangan 29,6 milliard AQSH dollarlik bozor hamda Italiyaning 26 000 ta agroturizm fermer xo'jaliklari orqali erishgan natijalari turizmning mahalliy iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ushbu tajribalar mahalliy aholining iqtisodiy manfaatdorligi ortishi barqaror turizm tamoyillarining samarali amalga oshirilishiga xizmat qilishini ko'rsatadi. O'zbekistondagi mavjud mahalla tizimi esa jamoatchilikka asoslangan turizmni boshqarish uchun o'ziga xos institutsional asos yaratib, ushbu yo'nalishni rivojlantirishda muhim ustunlik sifatida namoyon bo'ladi (3-jadval).

3-jadval O'zbekiston uchun ustuvor amaliy harakatlar rejasi³

Bosqich	Ustuvor harakat	Xalqaro model	Vaqt jadvali
1-bosqich: Asos	Milliy barqaror turizm standartini (GSTC bilan moslashtirilgan) ishlab chiqish	Qozog'iston ST RK 2993	2025-2026
	Barqaror turizmni muvofiqlashtirish bo'limini tashkil etish	Tailand DASTA	2025-2026

3 Muallif tomonidan "O'zbekiston 2030" strategiyasi xronologiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

2-bosqich: Sinovdan o'tkazish	UNESCOning meros obyektlarida sinov sertifikatini	Indoneziya Tri Hita Karana	2026-2027
	Mahalla asosidagi jamoat turizmi dasturini ishga tushirish	Tailand CBT modeli	2026-2027
3-bosqich: Kengaytirish	Barqaror turizm fiskal vositalarini joriy etish	Ispaniya Balear solig'i	2028-2029
	GSTC standartini tan olish	45+ tan olingan standartlar	2029-2030

3-jadvalda keltirilgan amaliy harakatlar rejasi tegishli tashkiliy, institutsional va iqtisodiy mexanizmlar bilan qo'llab-quvvatlangan taqdirda, barqaror turizmni rivojlantirish turli ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional sharoitlarda samarali amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatadi. O'zbekistonning UNESCO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlari, an'anaviy mahalla boshqaruv tizimi hamda tarixiy Ipak yo'li bo'ylab strategik geografik joylashuvining o'zaro uyg'unligi mamlakatda o'ziga xos barqaror turizm modelini shakllantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida o'rganilgan va qiyosiy tahlil qilingan xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitlarga mos ravishda tanlab joriy etish O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv nafaqat milliy turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, balki xalqaro standartlarga mos barqaror turizm tizimini shakllantirish orqali O'zbekistonning global turizm amaliyotidagi nufuzini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mavjud tabiiy, tarixiy va madaniy salohiyatdan oqilona foydalanish asosida mamlakatda barqaror turizmni rivojlantirish istiqbollari yuqori ekanligini ta'kidlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eurostat. EU tourism nights at record 3.08 billion in 2025 / Eurostat. — European Commission, 16.01.2026. — Mode of access: <https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-eurostat-news/w/ddn-20260116-1>.
2. Davies, P. Balearics to invest €377m from green tax across 79 projects this winter // Travel Weekly. — 17.12.2024. — Access mode: <https://travelweekly.co.uk/news/balearics-to-invest-e377m-from-green-tax-across-79-projects-this-winter>.
3. Agència de Estratègia Turística de les Illes Balears (AETIB). Sustainable Tourism Tax: Projects and Rates 2024–2025. — Illes Balears, 2024. — Access mode: <https://www.illessostenibles.travel>.
4. Strategic Tourism Plan 2023–2027. — urbanpromo.it, 2025. — Access mode: <https://urbanpromo.it/2025-en/progetti/strategic-tourism-plan-2023-2027/>.
5. OECD. Promoting the Digitalisation of the Tourism Ecosystem in Italy: A Focus on SMEs: OECD Tourism Papers, 2025/13 / OECD. — Paris: OECD Publishing, 11.07.2025. — 46 p. — DOI: 10.1787/63616a85-en.
6. La Clef Verte – Teragir. — laclefverte.org, 2025. — Access mode: <https://www.laclefverte.org/le-label/teragir>.
7. Medrano, T., del Valle, D. Spain plans to focus on “quality over quantity” as tourist numbers hit record high // Euronews. — 04.02.2026.
8. Kasemsuk, N. Tourism revival goes into reverse // Bangkok Post. — 21.07.2025. — Access mode: <https://www.bangkokpost.com/business/general/3072756/tourism-revival-goes-into-reverse>.
9. Rungchavalnont, P. Community-Based Tourism: Empowering Local Champions for Sustainable Tourism in Thailand. — United Nations Development Programme (UNDP) Thailand, 06.11.2022. — Access mode: <https://www.undp.org/thailand/blog/community-based-tourism-empowering-local-champions-sustainable-tourism-thailand>.
10. Thailand drives journey to sustainable tourism leadership // Breaking Travel News. — 04.10.2025. — Access mode: <https://www.breakingtravelnews.com/>.
11. Thailand Community-Based Tourism Market to Reach \$140.3 bn by 2034. — Allied Market Research, 2025. — Access mode: <https://www.alliedmarketresearch.com>.
12. Thailand named to 2025 Green Destinations Top 100 with ten destinations recognised for sustainable tourism // Thai News Bureau (NBT World). — 01.10.2025. — Access mode: <https://thainews.prd.go.th/nbtworld/news/print/1460615/?bid=1>.
13. Kamaruddin, K. National Ecotourism Plan 2016–2025 / Ministry of Tourism, Arts and Culture Malaysia. — COMCEC, 2021. — Access mode: https://www.comcec.org/wp-content/uploads/2021/07/6.4.Malasia_NEP-COMCEC.pdf.
14. Malaysia Investment Development Authority. Capturing High-Value Nature-Based Tourism Projects – A Sustainable Paradigm Approach for Malaysia. — MIDA, 2024. — Access mode: <https://www.mida.gov.my/capturing-high-value-nature-based-tourism-projects-a-sustainable-paradigm-approach-for-malaysia/>.
15. Othman, A. Tourism Hype, Economic Hangover: The Mirage of Visit Malaysia 2026. — 2025. — October. — DOI: 10.13140/RG.2.2.12533.44004.
16. Malaysia Investment Development Authority. Capturing High-Value Nature-Based Tourism Projects – A Sustainable Paradigm Approach for Malaysia. — MIDA, 2024. — Access mode: <https://www.mida.gov.my/capturing-high-value-nature-based-tourism-projects-a-sustainable-paradigm-approach-for-malaysia/>.
17. Sabah tourism contributes RM13.7 bln to economy, employs nearly 388,000, says Jafry // The Borneo Post (via Brunei Direct). — 16.12.2025. — Access mode: <https://www.theborneopost.com/2025/12/16/sabah-tourism-contributes-rm13-7-bln-to-economy-employs-nearly-388000-says-jafry/>.
18. Wan Shamshudi, W. S., Radzuan, F. N., Faizal, N. F. A., Mohd Yaid, S. A., Md Yusof, M. K., Mohd Aznan, E. A.



- Factors that Influence Domestic Tourists' Decision to Visit Nature-Based Tourism Destinations in the Northern Region of Malaysia // Jurnal Intelek. — 2024. — Vol. 19, Issue 1.
19. Indonesia approves new tourism law to promote inclusive and sustainable development // TTG Asia. — 03.10.2025. — Access mode: <https://www.ttgasia.com/2025/10/03/indonesia-approves-new-tourism-law-to-promote-inclusive-and-sustainable-development/>.
 20. Tourism Statistics for Bali, Indonesia. — Roadgenius.com, 2025. — Access mode: <https://roadgenius.com/statistics/tourism/indonesia/bali/>.
 21. Pickel-Chevalier, S., Ketut, B. Towards Sustainable Tourism in Bali: A Western Paradigm in the Face of Balinese Cultural Uniqueness // La Troisième Révolution touristique: Deuxième partie – Évolution des lieux et des territoires. — Hors-série, 2016. — DOI: 10.4000/tourisme.1187.
 22. EcotourismBali.com. — ecotourismbali.com, 2025. — Access mode: <https://ecotourismbali.com/>.
 23. Georgia – Tourism. — Trade.gov, 03.12.2025. — Access mode: <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/georgia-tourism>.
 24. Jikidze, E. Sustainability Indicators for Tourism Destinations in Georgia // Universal Library of Business and Economics. — 2025. — Vol. 2, No. 3. — Pp. 77–81. — DOI: 10.70315/uloap.ulbec.2025.0203014.
 25. Inbound Tourism Statistics – 2024. — Geostat (National Statistics Office of Georgia), 2025. — Access mode: <https://www.geostat.ge/media/68121/Inbound-Tourism-Statistics---2024.pdf>.
 26. Kvaratskhelia, Z. Georgia expands protected areas across seven regions // Georgia Online. — 08.01.2026. — URL: <https://georgiaonline.ge/georgia-expands-protected-areas-across-seven-regions/>.
 27. UNDP Georgia. Sustainable Tourism. — United Nations Development Programme (UNDP) Georgia, 2025. — URL: <https://www.undp.org/georgia/press-releases/sustainable-tourism>.
 28. Kazakhstan boosts tourism with new infrastructure and digital solutions // Astana Times. — 24.04.2025. — URL: <https://astanatimes.com/2025/04/kazakhstan-boosts-tourism-with-new-infrastructure-and-digital-solutions/>.
 29. 7.5 mln foreign tourists visited Kazakhstan in H1 2025 // Qazinform. — 08.08.2025. — URL: <https://qazinform.com/news/75-mln-foreign-tourists-visited-kazakhstan-in-h1-2025-341b2a>.
 30. Tourism // gov.kz (Official Information of the Republic of Kazakhstan). — 2025. — URL: <https://www.gov.kz/article/63300?lang=en>.
 31. Preparing Kazakhstan's Future Leaders for Ecotourism // BIOFIN. — 2025. — URL: <https://www.biofin.org/news-and-media/preparing-kazakhstans-future-leaders-ecotourism>.
 32. How Kazakhstan regulates and sustains expanding tourism sector // Astana Times. — 12.05.2025. — URL: <https://astanatimes.com/2025/05/how-kazakhstan-regulates-and-sustains-expanding-tourism-sector/>.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100